

KASBIY STANDART
O'rmonchilik va ko'kalamzorlashtirish laboranti

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "O'rmon xo'jaligi biolaboranti" kasbi bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ekologik monitoring – atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini aniqlash, uning ekologik holatini baholash, salbiy jarayonlarning oqibatlarini prognoz qilish bartaraf etish maqsadida atrof tabiiy muhitning biotik va abiotik komponentlarining holatini, ularning ifloslanish va antropogen faoliyatning boshqa zararli ta'sirlari (jarayonlari) tufayli o'zgarishini muntazam kuzatish tizimi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha

tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	O'rmonchilik va ko'kalamzorlashtirish laboranti	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	O'rmon ekotizimlarining biologik xilma-xilligini ilmiy asosda monitoring va tahlil qilish orqali o'rmon resurslarini barqaror boshqarishni ta'minlash, ekologik muvozanatni mustahkamlash va tabiatni muhofaza qilishga hissa qo'shish	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	A seksiyasi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 02 O'rmonchilik va yog'och tayyorlash 02.1 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati 02.10 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati 02.10.0 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	O'rmon ekotizimlarining biologik xilma-xilligini saqlash va barqaror boshqarishga yordam berish, shuningdek, o'rmon resurslaridan samarali foydalanish va ularni qayta tiklash hamda ekologik muvozanatni mustahkamlash va tabiatni muhofaza qilish	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		62109009 O'rmon xo'jaligi biolaboranti	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	62109009 O'rmon xo'jaligi biolaboranti	A1.3	O'rmon ekotizimlarining biologik xilma-xilligini monitoring qilish	A1.01.3	O'simlik va hayvon turlarini ro'yxatga olish va kuzatish
				A1.02.3	Namuna yig'ish va ularni dastlabki tahlil uchun tayyorlash
		A2.3	O'rmon resurslarini himoya qilish va qayta tiklash	A2.01.3	Zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash
				A2.02.3	Daraxt ekish va parvarishlash
		A3.3	O'rmon monitoringi uchun ma'lumotlarni hujjatlashtirish va uskunalar bilan ishlash	A3.01.3	Monitoring ma'lumotlarini ro'yxatga olish va hujjatlashtirish
				A3.02.3	Monitoring asbob-uskunalarini ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	O'rmon xo'jaligi biolaboranti	
Mashg'ulot nomining kodi:	62109	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	O'rmon hududlarida ishlash – issiq, sovuq, namlik, chang yoki o'rmon zararkunandalari kabi og'ir tabiiy sharoitlariga bardoshlilik; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	-	-
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3-O'rmon ekotizimlarining biologik xilma-xilligini monitoring qilish	A1.01.3-O'simlik va hayvon turlarini ro'yxatga olish va kuzatish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon hududlarida o'simlik va hayvon turlarini vizual kuzatish va aniq
		2. Turlarni ro'yxatga olish va ma'lumotlarni hujjatlashtirish
		3. Turlarning tarqalishini xaritalash uchun koordinatalarni belgilash
		4. Turlarning holatini baholashda ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		O'simlik va hayvon turlarini aniqlash va vizual kuzatish usullaridan foydalanish
		Ma'lumotlarni tizimli ro'yxatga olish va hujjatlashtirish
		GPS va oddiy o'lchov asboblardan foydalanish
		Turlarning salomatlik holatini baholash
		Jamoaviy ishlash va mutaxassis ko'rsatmalariga amal qilish
		Ekologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Mahalliy o'simlik va hayvon turlari xususiyatlari
		O'rmon ekotizimlarining biologik xilma-xilligi va monitoring usullari
		Monitoring asboblari va texnologiyalaridan foydalanish

		tartibi
		Ekologik xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalari
		Ma'lumotlarni hujjatlashtirish tartibi
		O'zbekiston o'rmon xo'jaligi va ekologik qonunchiligi
	A1.02.3 Namuna yig'ish va ularni dastlabki tahlil uchun tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Namuna yig'ish uchun o'rmon hududlarini tayyorlash va rejalashtirish
		2. Namunalarni dastlabki tahlil uchun tayyorlash
		3. Namuna yig'ish jarayonini hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Namunalarni standart usullarda yig'ish
		Monitoring asboblariidan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish
		Ma'lumotlarni aniq hujjatlashtirish va ro'yxatga olish
		Ekologik xavfsizlik qoidalari rioya qilish
		Jamoaviy ishlash va mutaxassis ko'rsatmalariga amal qilish
		Bilimlar:
		Ekologik standartlar va namuna yig'ish talablari
		O'rmon ekotizimlarining biologik va kimyoviy xususiyatlari
		Monitoring asboblariining tuzilishi va ishlash tamoyillari
		Ekologik xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish qoidalari
		O'zbekiston o'rmon xo'jaligi va ekologik xavfsizlik qonunchiligi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Namuna yig'ish sifati va xavfsizlik uchun mas'uliyat
		2. Ma'lumotlar aniqligi va o'z vaqtida ro'yxatga olinishda javobgarlik
A2.3-O'rmon resurslarini himoya qilish va qayta tiklash	A2.01.3- Zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash	Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon hududlarida vizual kuzatuvlar o'tkazish
		2. Zararkunandalar va kasallik belgilarini ro'yxatga olish
		3. Ma'lumotlarni mutaxassislarga taqdim etish va hisobot tayyorlashda yordam berish
		Ko'nikmalar:
		O'simliklardagi zararkunandalar va kasallik belgilarini vizual aniqlash
		Zararkunandalar va kasallik ma'lumotlarini tizimli hujjatlashtirish
		Mutaxassislar rahbarligida jamoaviy ishlash
		Bilimlar:
		O'rmon o'simliklaridagi zararkunandalar va kasalliklarning xususiyatlari
		Zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash usullari
		Ekologik xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish qoidalari
		O'zbekiston o'rmon xo'jaligi va ekologik xavfsizlik qonunchiligi
	A2.02.3-Daraxt ekish va	Mehnat harakatlari:
		1. Tuproqni daraxt ekish uchun tayyorlash

	parvarishlash	2. Daraxt ko'chatlarini ekish 3. Ekilgan ko'chatlarni parvarish qilish 4. Parvarish jarayonini hujjatlashtirish Ko'nikmalar: Daraxt ko'chatlarini standart usullar bo'yicha ekish Ekilgan ko'chatlarni maxsus jadvallarga asosan parvarish Parvarish jarayonlarini muntazam hujjatlashtirib borish Ekologik xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish Jamoaviy ishlash va mutaxassis ko'rsatmalariga amal qilish Bilimlar: Daraxt ko'chatlarini ekish va parvarishlash texnologiyalari O'zbekiston o'rmonlaridagi o'simlik turlari va ularning ekologik xususiyatlari Tuproq va suv resurslarining xususiyatlari Ekologik xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish qoidalari Ma'lumotlarni hujjatlashtirish va jurnal yuritish tartibi O'zbekiston o'rmon xo'jaligi va ekologik xavfsizlik qonunchiligi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ekish va parvarish jarayonlarining sifati uchun mas'uliyat 2. Ma'lumotlarni aniqligi va o'z vaqtida hujjatlashtirishda mas'uliyat 3. Ekologik zarar yetkazmaslik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishda javobgarlik
A3.3-O'rmon monitoringi uchun ma'lumotlarni hujjatlashtirish va uskunalar bilan ishlash	A3.01.3-Monitoring ma'lumotlarini ro'yxatga olish va hujjatlashtirish	Mehnat harakatlari: 1. Monitoring ma'lumotlarini yig'ish va dastlabki ro'yxatga olish 2. Ma'lumotlarni raqamli va an'anaviy shaklda tizimlashtirish 3. Ma'lumotlarni mutaxassislarga taqdim etish uchun hisobotlar tayyorlash 4. Hujjatlashtirish jarayonining sifati tekshirish va xatolarni tuzatish Ko'nikmalar: Monitoring ma'lumotlarini aniq va tizimli ro'yxatga olish Raqamli platformalardan foydalanish va ma'lumotlarni tizimlashtirish Hisobotlar tayyorlash va ma'lumotlarni taqdim etish Jamoaviy ishlash va mutaxassis ko'rsatmalariga amal qilish Ekologik xavfsizlik va ma'lumotlar maxfiyligiga rioya qilish Bilimlar: O'rmon monitoringi ma'lumotlarini ro'yxatga olish tartibi O'rmon ekotizimlarining biologik va ekologik xususiyatlari Raqamli hujjatlashtirish vositalaridan foydalanish qoidalari

		Ekologik xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish qoidalari
		O'zbekiston o'rmon xo'jaligi va ekologik qonunchiligi
	A3.02.3- Monitoring asbob- uskunalarini ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish	Mehnat harakatlari:
		1. Monitoring asbob-uskunalarini ishga tayyorla
		2. Asbob-uskunalariga muntazam texnik xizmat ko'rsatish
		3. Asbob-uskunalar holatini hujjatlashtirish va saqlash
		Ko'nikmalar:
		Monitoring asbob-uskunalarini sozlash
		Asbob-uskunalaridan monitoring jarayonida samarali foydalanish
		Asbob-uskunalariga oddiy texnik xizmat ko'rsatish
		Ekologik xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Monitoring asbob-uskunalarining tuzilishi va ishlash tamoyillari
		Asbob-uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish usullari
		O'rmon monitoringi ma'lumotlarini yig'ish talablari
		Ekologik xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalari
		O'zbekiston o'rmon xo'jaligi va ekologik xavfsizlik qonunchiligi
		Mas'uliyat va mustaqillik:
	2. Asbob-uskunalarini saqlash va nosozliklarni o'z vaqtida aniqlashda javobgarlik	
	Texnik va/yoki texnologik talab	

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari
5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i	B.Kazakbayeva
2	Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi	I.G'ulomov
3	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Mustaqil maslahatchi	N.Almedov
4	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) Akademik hamkorlik va dasturlarni rivojlantirish bo'limi menejeri	I. Mashrabaliyev
5	"Ekomodern" MCHJ direktori	S.Axmedova